



PAPER

BAXMAL SHEVASIDA LEKSIK FARQLANUVCHI SO‘ZLAR VA ULARNING TAHLILI

Ochilova Shahlo^{1,*} and Suvonova Rohila Akramovna²

¹Samarqand davlat universiteti 2-kurs magistranti

²dotsent, SamDu, O‘zbek tilshunosligi kafedrası

* ochilova@gmail.com

Abstract

Maqolada o‘zbek tilining Baxmal tumani shevasida faol qo‘llanuvchi ayrim so‘zlar adabiy tildagi va mavjud shevalardagi so‘zlar bilan qiyoslanib, tahlilga tortilgan hamda bu to‘g‘rida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Key words: Baxmal tumani shevasi, dialektologiya, qipchoq lahjasi, leksik xususiyatlar, so‘zlashuv nutqi.

KIRISH

O‘zbek tili dialektologiyasi turkiy tillar dialektologiyasining tarkibiy qismi sifatida XX asr boshlaridan boshlab ilmiy tadqiqot obyekti aylangan. Bu sohaning shakllanishida E.D. Polivanovning o‘zbek tilining dialektal tasnifi haqidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Olim o‘zbek shevalarini tarixiy-etnik asosda guruhlashga uringan va qipchoq lahjasining o‘ziga xos fonetik hamda leksik belgilariga e‘tibor qaratgan. K.K. Yudaxin va A.K. Borovkovlarning ishlari esa o‘zbek shevalarining lug‘aviy boyligini aniqlash, dialektal so‘zlarning semantik qatlamlarini tavsiflashda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qildi.

So‘nggi yillarda dialektologik tadqiqotlarda

yangi yondashuvlar — etnolingvistik talqin, sotsiolingvistik omillarni hisobga olish, dialektal birliklarni elektron bazalar asosida qayd etish va lingvogeografik xaritalash metodlari keng qo‘llanilmoqda. Bu holat dialekt leksikasini faqat tavsifiy emas, balki funksional va madaniy hodisa sifatida talqin qilish imkonini bermoqda. Qipchoq lahjasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda asosan yirik hududiy guruhlar qamrab olingan bo‘lib, ayrim mahalliy shevalar, jumladan, Jizzax viloyati Baxmal tumani hududida tarqalgan qipchoq shevasining leksik xususiyatlari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Holbuki, ushbu shevada chorvachilik, kundalik turmush, qarindoshlik va mahalliy madaniyat bilan bog‘liq qadimiy leksik birliklar faol qo‘llanib, ular o‘zbek tilining tarixiy lug‘at tarkibini boyituvchi

Compiled on: March 2, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

muhim manba hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek xalqining so'z boyligi uning o'tmishi va hozirgi kuni, butun imkoniyatlarini o'zida mujassamlantiradi. O'zbek shevalari milliy til rivoji uchun oziqlantiruvchi ildiz vazifasini o'taydi. 2019-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tad birlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Farmon matnida bir qator chet so'zlarning o'zbekcha muqobilini topish, turkiy so'zlarni faollashtirish ma salasi alohida ta'kidlangan. Shevalarni o'rganish, shevalardagi so'z boyligini ommalashtirish shu jihatdan ham dolzarbdir.

Qipchoq shevalarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishda Professor X.Doniyorovning Samarqand viloyati sharqiy hududi shevalarining etnogenetik va lingvistik xususiyatlari bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari e'tiborga molikdir. Olimning "O'zbek xalqining shajara va shevalari" (1968), "O'zbek tilining jlovchi dialektlarini adabiy til bilan qiyoslab o'rganish", "Eski o'zbek tili va qipchoq dialektlari"(1977), "Qipchoq dialektlarining leksikasi"(1979) va V.Egamovning "O'zbek tilining G'allaorol shevasi"(1955), H.G'ulomovning Jizzax shevasi kabi bir qancha ilmiy va monografik tadqiqotlar yaratilganligini alohida ta'kidlashimiz lozim.

O'zbek tili shevalarini atroflicha o'rganish faqat lingvistik xarakterga ega bo'libgina qolmasdan, balki o'zbek xalqining shakllanish tarixini, ya'ni uning etnogenetik jarayonini aniqlashda asosiy o'rin egallaydi. O'zbek tilining qipchoq lahjasiga kiruvchi Baxmal tumani shevasida ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotni aks ettiruvchi juda ko'p til faktlari mavjud, bu esa mazkur shevani har tomonlama tarixiy va qiyosiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi.

O'zbek shevalarni fonetik, leksik va grammatik jihatdan tasniflash mumkin. O'zimiz yashab turgan, hozirgi davrda kam ishlatiladigan so'zlarni jamlab o'zbek tili shevalarining mukammal izohli lug'atini tuzish kun tartibidagi dol zarb masalalardan hisoblanadi. Unga o'zbek xalqi ishlatadigan barcha so'zlarni qayd qilish amaliy ahamiyatga ega.

Quyida Jizzax viloyati Baxmal tumani shevasi fe'l so'z turkumi misolida shevalarning leksik jihatini adabiy til bilan solishtirib ko'ramiz.

Leksik jihatdan farqlanuvchi fe'llar:

<u>Hozirgi o'zbek adabiy tilida</u>	<u>Baxmal shevasida</u>
<u>ergashmoq</u>	<u>Ivarmoq</u>
<u>aralashtirmoq</u>	<u>do'qilamoq</u>
<u>qurimoq</u>	<u>sergimoq</u>
<u>yaqinlashtirma</u>	<u>doritma</u>
<u>shilmoq</u>	<u>siyirmoq</u>
<u>eskirmoq</u>	<u>o'ngimoq</u>
<u>yalinmoq</u>	<u>elanmoq</u>
<u>urushmoq</u>	<u>to'balashmoq</u>
<u>yugurmoq</u>	<u>cho'vmoq</u>
<u>ivirsimoq</u>	<u>qo'qimoq</u>
<u>isitmoq</u>	<u>jilitmoq</u>
<u>xursand bo'lmoq</u>	<u>eshkinlamoq</u>
<u>kamaymoq</u>	<u>ozaymoq</u>
<u>bo'yimoq</u>	<u>o'ngarilmoq</u>
<u>almashtirmoq</u>	<u>ovushtirmoq</u>
<u>yafot etmoq</u>	<u>bo'may qolmoq</u>
<u>turmushga chiqmoq</u>	<u>uy qimoq</u>
<u>yopmoq</u>	<u>jo'vmoq</u>

Jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, Baxmal shevasida ishlatiladigan ayrim so'zlar adabiy til shakllaridan sezilarli darajada farq qiladi, bu esa ushbu shevaning o'ziga xos leksik xususiyatlarini namoyon etadi Baxmal shevasidagi fe'l so'z turkumidagi leksik farqlanuvchi birliklar adabiy til shakllaridan sezilarli darajada farq qiladi, bu esa ushbu shevaning o'ziga xos leksik xususiyatlarini namoyon etadi. Shu bilan birga, shevaning leksik boyligi faqat fe'l so'z turkumidagi so'zlarda emas, balki ot so'z turkumidagi so'zlarda ham namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, fe'l so'z turkumiga nisbatan ot so'z turkumida leksik farqlanuvchi so'zlar soni ancha ko'proq bo'lib, ularning ko'pligi shevaning ob'ekt, shaxs va joy nomlarini ifodalashdagi mahalliy rang-barangligini yanada yaqqol ochib beradi. Shunday qilib, fe'l va ot so'z turkumlarini birgalikda tahlil qilish Baxmal shevasining leksik boyligi va xalq hayoti bilan bog'liqligini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Endi Baxmal shevasining ot so'z turkumiga e'tibor qaratamiz. Ushbu so'zlar shevaning leksik boyligi va mahalliy nutq xususiyatlarini namoyon

qiladi.

Leksik jihatdan farqlanuvchi shaxs va narsa otlari:

Hozirgi o'zbek adabiy tilida	Baxmal shevasida
ona	ona
nimcha	kaltacha
toxoq	lali
ignatugma	shoqina
tova	joq'lov
yengcha (non yopishda foydalaniladi)	jengsa
supurgi	shibirki
makkajo'xori	makkayi
jimjiloq	chinaqay
ostona	payga, bo'sag'a
tuxum	mayak
tillaqosh	manglayqosh
bobo	katata
buni	anna
shirguruch	oxpalov
bava	jesir
yig'in	o'tirish
g'aybat	o'shabak
kampir	momoy
lo'li	mo'ltomi
do'stining ayoli	mo'yinsa
pochcha (ammaning eri)	jazza
ishton	pozcha
yanga	chacha

Jadvaldagi deyarli barcha leksemalar ma'no o'zgarishiga uchragan bo'lishi bilan hozirgi adabiy tilda istifoda qilinmoqda. Bu esa, tilimiz, shevalarimiz va xalqimizning tarixiga borib tutashadi. Olib borilgan tadqiqot natijalari Baxmal tumani shevasining o'zbek tilining qipchoq lahjasi tarkibida shakllangan, o'ziga xos va boy leksik tizimga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida fe'l va ot so'z turkumiga mansub leksik farqlanuvchi birliklar qiyosiy tahlil qilinib, fe'l so'zlar harakat va jarayonlarni ifodalashdagi shevaviy xususiyatlarni namoyon etgani, ot so'z turkumida esa leksik farqlanuvchi so'zlar son jihatdan ustun ekani aniqlandi. Bu holat Baxmal shevasida shaxs, narsa-buyum, qarindoshlik va maishiy tushunchalarni ifodalovchi leksikaning nihoyatda boy ekanligini ko'rsatadi. Bugun yoshlarimiz deyarli o'zaro shevada emas, balki, adabiy tilda muloqot qiladilar. Sheva so'zlarining o'ziga xos go'zalliklarini shahar va viloyatdan ancha uzoqda bo'lgan chekka qishloqlarda uchratish mumkin. Fonetik va leksik jihatdan o'ziga xos bo'lgan Baxmal tumani shevasi

monografik tadqiqot olib boruvchi yoshlarni kutmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Baxmal tumani shevasi viloyat va tumanlararo qiyoslanganda, leksik jihatdan ham o'ziga xos bo'lib, shakliiy tuzilishidan rang-barangdir. Shevadagi leksemalarning ayrimlari bir xil ma'nod ishlatilsa, ayrimlari ma'no kengayishi yoki torayishiga uchragan holda hozirgi kungacha yetib kelganligi ma'lum bo'ldi. Tilimiz boyligi sanalgan sheva va lahjalarimizdagi so'zlarni yozib olib, bu orqali adabiy tilimizni yanada to'ldirib, boyitib borish dialektologiya fani oldida turgan dolzarb masalardan biridir.

References

1. Polivanov E.D. O'zbek shevalari va ularning tasnifi. — Toshkent, 1933. — 120 b.
2. Yudaxin K.K. O'zbekcha-ruscha lug'at. — Moskva: Gosizdat, 1953. — 850 b.
3. Borovkov A.K. O'zbek shevalari leksikasi. — Toshkent: Fan, 1963. — 210 b.
4. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. — Toshkent: Fan, 1968. — 180 b.
5. Doniyorov X. Eski o'zbek tili va qipchoq dialektlari. — Toshkent: Fan, 1977. — 240 b.
6. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. — Toshkent: Fan, 1979. — 200 b.
7. Egamov V. O'zbek tilining G'allaorol shevasi. — Toshkent, 1955. — 150 b.
8. G'ulomov H. Jizzax shevalarining leksik xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 1974. — 165 b.
9. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. — 672 b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildda. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

11. Madvaliyev A. (mas'ul muharrir). O'zbek tilining izohli lug'ati. — Toshkent, 2020. — 1100 b.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. — 2019-yil 21-oktyabr.